



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

THE CONCEPT OF SOCIAL CULTURE: SOCIAL ANALYSIS OF THE STAGES OF EVOLUTIONARY DEVELOPMENT

Bakhtiyor Mamarasulovich Absattorov

*Associate Professor of the Department of
“Social and Humanities” of the Tashkent branch of the
University of Business and Science, Doctor of Philosophy PhD*

Dildora Abzalovna Rakhimova

*Senior Lecturer of the Department of Social Sciences
of the University of Science and Technology
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Culture of society, evolution of culture, social development, civilization, social systems, cultural transformation, historical stages, human development, global processes, digital civilization, connection of culture and society.

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: This article illuminates the philosophical content of the concept of societal culture and the stages of its historical-evolutionary development based on social analysis. In the study, the organic connection of culture with the development of humanity, the process of its formation from the primitive communal system to the era of digital civilization, is analyzed on a scientific basis. The interrelationship of societal culture with social systems, economic relations, ideology, and spiritual values is also revealed. The authors philosophically substantiate the role of culture as the main factor determining the development of society in each historical period and analyze the transformational features of culture under the influence of modern global processes. The article has scientific and practical significance for understanding the essence of the phenomenon of social culture, its study in a modern socio-philosophical context.

JAMIYAT MADANIYATI TUSHUNCHASI: EVOLYUTSION RIVOJLANISH BOSQICHLARINING IJTIMOIY TAHLILI

Baxtiyor Mamarasulovich Absattorov

University of Business and Science Toshkent filiali

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti,
falsafa doktori PhD*

Dildora Abzalovna Raximova
*Fan va texnologiyalar universiteti
 “Ijtimoiy fanlar kafedrasi” katta o‘qituvchisi
 Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Jamiyat madaniyati, madaniyat evolyutsiyasi, ijtimoiy taraqqiyot, sivilizatsiya, ijtimoiy tizimlar, madaniy transformatsiya, tarixiy bosqichlar, insoniyat taraqqiyoti, global jarayonlar, raqamli sivilizatsiya, madaniyat va jamiyat aloqasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat madaniyati tushunchasining falsafiy mazmuni va uning tarixiy-evolyutsion rivojlanish bosqichlari ijtimoiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqotda madaniyatning insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligi, uning ibridoiy jamoa tuzumidan to raqamli sivilizatsiya davrigacha bo‘lgan shakllanish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, jamiyat madaniyatining ijtimoiy tizimlar, iqtisodiy munosabatlar, mafkura va ma’naviy qadriyatlar bilan o‘zaro aloqasi olib beriladi. Mualliflar madaniyatning har bir tarixiy davrda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil sifatidagi o‘rnini falsafiy jihatdan asoslab, zamonaviy global jarayonlar ta’sirida madaniyatning transformatsion xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqola jamiyat madaniyati fenomenining mohiyatini anglash, uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy kontekstda tadqiq etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕСТВА: СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭТАПОВ ЭВОЛЮЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Бахтиёр Мамарасулович Абсаттаров
*Доцент кафедры “Социально-гуманитарные науки”
 Ташкентского филиала University of Business and Science,
 доктор философии PhD*

Дилдора Абзаловна Рахимова
*старшего преподавателя кафедры социальных
 наук университета науки и технологий
 Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Культура общества, эволюция культуры, социальное развитие, цивилизация, социальные системы, культурная трансформация, исторические этапы, развитие человечества, глобальные процессы,

Аннотация: В данной статье освещается философское содержание понятия культуры общества и этапы ее историко-эволюционного развития на основе социального анализа. В исследовании на научной основе

цифровая цивилизация, связь культуры и общества.

анализируется неразрывная связь культуры с развитием человечества, процесс ее формирования от первобытнообщинного строя до эпохи цифровой цивилизации. Также раскрывается взаимосвязь культуры общества с социальными системами, экономическими отношениями, идеологией и духовными ценностями. Авторы философски обосновывают роль культуры как основного фактора, определяющего развитие общества в каждый исторический период, анализируют трансформационные особенности культуры под влиянием современных глобальных процессов. Статья имеет научное и практическое значение для понимания сущности феномена культуры общества, его исследования в современном социально-философском контексте.

Kirish. Jamiyat madaniyati insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-falsafiy kategoriyalardan biridir. U jamiyatning ma'naviy, axloqiy, estetik va intellektual hayotini ifodalovchi murakkab tizim bo'lib, inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Madaniyat jamiyatning ijtimoiy tizimi, iqtisodiy munosabatlari, siyosiy tuzilmasi hamda ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan dinamik jarayondir. Shu bois, jamiyat madaniyatini o'rganish nafaqat inson faoliyatining tarixiy shakllarini tahlil qilishni, balki jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini anglashni ham taqozo etadi. Jamiyat madaniyati tushunchasining falsafiy mohiyati va uning evolyutsion rivojlanish bosqichlari, ibtidoiy jamoadan boshlab zamonaviy raqamlı sivilizatsiyagacha bo'lgan jarayonda madaniyatning mazmuni va funksional ahamiyatidagi o'zgarishda bo'ladi. Shu bilan birga, madaniyatning jamiyatdagi ijtimoiy rollari, qadriyat tizimining yangilanishi va globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan madaniy transformatsiyalar masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot jamiyat madaniyatining tarixiy dinamikasini chuqr anglash va uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy kontekstda talqin etish imkonini beradi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat madaniyati masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va tarix fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan. G'arb olimlari orasida E. Teylor, O. Shpengler, A. Toynbi, M. Veber kabi mutafakkirlar madaniyatning evolyutsion rivojlanishini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda izohlashgan. Ular madaniyatni inson faoliyatining ijtimoiy natijasi va sivilizatsiyaning ruhiy asosini tashkil etuvchi tizim sifatida talqin qilgan. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino,

G‘azzoliy, Navoiyning asarlarida esa madaniyat inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ijtimoiy uyg‘unlik mezoni sifatida yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Madaniyat tushunchasi insoniyat tarixida eng keng va murakkab bir nechta fanlarning integratsion kategoriyalardan biri hisoblanadi. U ijtimoiy ong, ma’naviyat, qadriyatlar, axloqiy normalar, turmush tarzi, an'analar va ma'rifatni o‘zida mujassamlashtiradi. Madaniyat so‘zi arab tilidagi مَدْنَى “madaniy” – “shahar hayotiga oid”, “taraqqiy etgan” ma’nosidan kelib chiqqan bo‘lib, “qadimdan insonning o‘z hayotini ongli ravishda tashkil etish jarayonini anglatgan. Ingliz tilida bu atama “culture” shaklida qo‘llanadi va u dastlab “yerga ishlov berish” (lotincha colere) mazmunida ishlatilgan”[1:87] bo‘lsa-da, keyinchalik inson faoliyati mahsullarini ifodalovchi keng falsafiy kategoriya sifatida shakllandi.

Falsafada madaniyatning bir nechta asosiy talqinlari mavjud. Birinchidan, madaniyat inson faoliyatining natijasi sifatida tushuniladi. A.Toynbi “madaniyatni jamiyatning ijodiy kuchlari tomonidan yaratiladigan ijtimoiy tizim sifatida ko‘rsatadi”[2:41] Ikkinchidan, madaniyat ijtimoiy meros, qadriyatlar va an'analar yig‘indisi sifatida qaraladi. Yuqorida yondashuv Clifford Geertzning “madaniyat – bu odamlar yashaydigan ma’nolar tizimi”[3:113] haqidagi fikrida yaqqol ifodasini topadi. Uchinchidan, madaniyat ma’naviyatning amaliy ko‘rinishi sifatida jamiyat a’zolarining ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini belgilaydi.

Madaniyat insoniyat tarixining eng chuqur va murakkab hodisalaridan biri bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy, axloqiy, intellektual va estetik taraqqiyotini ifoda etadi. Falsafiy nuqtayi nazardan madaniyat – bu insonning o‘z mohiyatini anglash, tabiatni o‘zgartirish, ijtimoiy hayotni tashkil etish va ma’naviy qadriyatlarni yaratish jarayonidir. U inson faoliyatining natijasi bo‘lish bilan birga, insonni shakllantiruvchi ijtimoiy muhit sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois falsafa madaniyatni “insoniyat mavjudligining usuli” sifatida talqin etadi.

Madaniyatning mohiyatini tushunishda eng avvalo, u tabiiylikdan farqli ravishda ongli faoliyat mahsuli ekanligi e’tirof etiladi. Nemis faylasufi I.G.Herder madaniyatni “insonning tabiiy holatdan ma’naviy holatga ko‘tarilishi”[4:123] deb izohlagan. Herder fikricha, madaniyat insonni hayvoniy instinktlardan xalos etib, uni ma’naviy va ijtimoiy mavjudot darajasiga olib chiqadi. Shu ma’noda madaniyat insonni inson qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Falsafada madaniyat ikki asosiy jihatdan o‘rganiladi: birinchidan, u insonning borliq bilan munosabatlarining shakli; ikkinchidan, insonning o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirish faoliyatining mazmunidir. Bu nuqtai nazardan K. Marks madaniyatni “insonning o‘z tabiatini amaliy faoliyat orqali ro‘yobga chiqarish shakli”[5:90] sifatida ko‘rgan. Demak, madaniyat nafaqat bilimlar, san’at, axloq va din shakllarida, balki ishlab chiqarish, mehnat, aloqa va ijtimoiy aloqalarda ham namoyon bo‘ladi.

Madaniyatning falsafiy tahlilida uning qadriyatli (aksiologik) mohiyati alohida o‘rin tutadi. Har bir jamiyat o‘z madaniyatida o‘ziga xos axloqiy, estetik va ma’naviy me’yorlarni yaratadi. Bu me’yorlar inson hayotining ma’nosini, qadriyatlar iyerarxiyasini va jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilaydi. Shu bois madaniyatni qadriyatlar tizimi sifatida tahlil qilgan faylasuflar (M.Veber, P.Sorokin, N.Berdyayev) uni inson ma’naviy dunyosining markaziga qo‘yadi. Madaniyat, shuningdek, ijtimoiy xotiraning ifodasi hamdir. U tarixiy tajribani avloddan-avlodga uzatish, uni boyitish va yangilash imkonini beradi. Shu ma’noda madaniyat “ijtimoiy genetik kod” vazifasini bajaradi. Bu kod orqali milliy o‘zlik, tarixiy ong va ijtimoiy birlik shakllanadi. Falsafiy jihatdan madaniyat vaqt va makon o‘lchovlarida o‘zgaruvchi, ammo o‘zining mohiyatida insonparvarlikni saqlab qoluvchi tizim sifatida talqin etish o‘rinlidir.

XX asr falsafasida (O. Shpengler, A. Toynbi, E. Kassirer) madaniyatni sivilizatsiya bilan qiyosiy tahlil qilish rivojlandi. Shpengler madaniyatni “inson ruhining ijodiy davri”, sivilizatsiyani esa “madaniyatning so‘nggi, texnokratik bosqichi” sifatida talqin etgan. Bu tahlillar madaniyatning mohiyatini faqat moddiy yoki texnik yutuqlarda emas, balki inson ruhining, tafakkurining va ma’naviyatining yuksalishida ko‘rsatadi. Madaniyat insonning borliqda o‘z o‘rnini anglash, ma’naviy dunyosini shakllantirish va hayotga ma’no berish faoliyatidir. U ijtimoiy mavjudot sifatidagi insonning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish shakli, jamiyatning ma’naviy poydevori hamda tarixiy taraqqiyotning asosiy mezondir. Madaniyatni chuqr falsafiy anglash – insoniyatning o‘zini anglash jarayonining ajralmas qismidir.

Madaniyat insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisadir. U inson faoliyatining natijasi sifatida shakllanadi va har bir tarixiy jamiyat formatsiyasida o‘ziga xos shakl hamda mazmunga ega bo‘ladi. Madaniyatning bunday o‘zgaruvchanligi, avvalo, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tuzum, siyosiy hokimiyat va dunyoqarashdagi o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Shu bois, har bir formatsiyada madaniyat jamiyatning asosiy ijtimoiy tizimi bilan uyg‘unlikda rivojlanib, o‘ziga xos ko‘rinish va funksional mazmun kasb etgan.

Ibtidoiy jamiyat madaniyatni asosan tabiat bilan bevosita aloqada, jamoaviy mehnat, diniy e’tiqodlar va mifologik tasavvurlar asosida shakllangan. Bu davrda madaniyatning asosiy ko‘rinishlari xalq og‘zaki ijodi, marosimlar, raqs, musiqa va tasviriy san’atning sodda shakllarida namoyon bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa madaniyatining mohiyati – tabiiy kuchlar oldida insonning ojizligini yengish uchun ularni ramzlar, miflar orqali tushunishga intilishidadir. Shu sababli bu davr madaniyatini “tabiiy uyg‘unlik madaniyati” deb atash mumkin.

Quldarlik jamiyatidagi madaniyat esa ijtimoiy tabaqlanish, mulkchilik va siyosiy hokimiyat shakllarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda shakllandi. Bu bosqichda madaniyat

sinfiy xarakterga ega bo‘lib, u hukmron tabaqalar manfaatini ifodalovchi san’at, adabiyot va falsafaning rivojida namoyon bo‘ldi. Misr, Yunoniston, Rim kabi sivilizatsiyalar madaniyati shundan dalolat beradi. Bu davrda inson aqliy salohiyatini, estetik didini, falsafiy tafakkurini shakllantiruvchi omillar kuchaydi. Shu bilan birga, madaniyat diniy va siyosiy hokimiyat xizmatida bo‘lib, ko‘plab monumental yodgorliklar, me’moriy inshootlar, yozuv tizimlari vujudga keldi.

Feodal jamiyat madaniyati diniy-ma’rifiy yo‘nalishda kechgan. Din – madaniyatning markaziy o‘qi bo‘lib, barcha g‘oyaviy va axloqiy qadriyatlar diniy dunyoqarash bilan uyg‘unlashgan. O‘rta asrlar Sharq va G‘arb madaniyatida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi: masalan, muslimon Sharqida madrasalar, ilm-fan, adabiyot va san’at diniy e’tiqod bilan uyg‘un rivojlandi; G‘arbda esa xristianlik g‘oyalari asosida falsafa va san’at rivoj topdi. Shu davr madaniyatining asosiy belgisi – ruhoniylilik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanishdir.

Kapitalistik jamiyat madaniyati esa insonni tabiat va jamiyatdan nisbatan mustaqil shaxs sifatida ko‘rsatishga, individuallikni yuksaltirishga intildi. Bu davrda fan, texnika, iqtisodiyot, siyosat va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar kuchaydi. Ma’rifatparvarlik, gumanizm va inson huquqlari g‘oyalari madaniy taraqqiyotning markaziga aylandi. Madaniyat ijtimoiy jarayonlarning bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylana boshladи.

Sotsialistik jamiyat madaniyati esa sinfiylik tamoyiliga tayaniб, “ommaviy madaniyat”ni shakllantirishga qaratilgan edi. U umumxalq ma’naviy birligini ta’minlash, jamoaviylik, mehnatsevarlik, tenglik g‘oyalarini targ‘ib etishga xizmat qildi. Shu bilan birga, siyosiy mafkura madaniyatning bosh yo‘nalishini belgilab berdi.

Zamonaviy postindustrial jamiyat madaniyati raqamli texnologiyalar, axborot oqimi va global integratsiya sharoitida shakllanmoqda. Bu davrda madaniyat “raqamli madaniyat”, “ommaviy madaniyat” va “submadaniyatlar” ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. Inson axborot texnologiyalari vositasida o‘z madaniy identifikatsiyasini virtual muhitda ifoda etmoqda. Shunday qilib, madaniyat endi faqat milliy yoki hududiy hodisa emas, balki global ijtimoiy hodisaga aylangan. Madaniyat jamiyat formatsiyalariga qarab o‘z shaklini o‘zgartirsa-da, uning mohiyati – insoniyatning ma’naviy, aqliy va estetik rivojlanish jarayoni sifatida doimiy qadriyat bo‘lib qoladi. Har bir davr madaniyati o‘z tarixiy sharoitida insoniyat tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va axloqiy me’yorlarini mujassamlashtirgan ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyat madaniyati va sivilizatsiya tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lib, ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi. Ammo falsafiy tahlil nuqtayi nazaridan ular mazmun jihatidan farqlanadi. Madaniyat – insoniyatning ma’naviy, estetik, axloqiy, ilmiy va ijodiy faoliyati natijasi bo‘lsa, sivilizatsiya – bu faoliyatning tashkiliy, texnik, ijtimoiy-siyosiy ko‘rinishidir.

Ya’ni, madaniyat insonning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi, ma’naviy yuksalishi bilan bog‘liq bo‘lsa, sivilizatsiya uning tashqi hayotini, moddiy va institutsional jihatlarini ifodalaydi (Yuqoridagi jamiyat formatsiyalarida madaniyatning belgilari to‘g‘risidagi fikrlar mualliflarning shaxsiy mulohazalari).

Falsafada madaniyat tushunchasi, asosan, insonning ruhiy-axloqiy olamini, ma’naviy qadriyatlarini, ijodiy salohiyatini anglatadi. E.Teylor ta’biri bilan aytganda, “madaniyat – bu insoniyat tomonidan jamiyat a’zosi sifatida egallangan bilim, e’tiqod, san’at, axloq, qonun va odatlar majmuidir”[6:572]. Sivilizatsiya esa ko‘proq jamiyatning tashkiliy va texnik taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ingliz faylasufi A.Toynbi sivilizatsiyani “insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi yuksalish bosqichi”[7:761] sifatida talqin etgan.

Madaniyat insoniyatning ruhiy, ma’naviy o‘zligini aks ettiruvchi hodisa bo‘lib, u xalqning milliy qadriyatlari, til, din, san’at, urf-odat, axloqiy me’yorlarida ifodalanadi. Masalan, o‘zbek madaniyati mehmondo‘slik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, tabiatga ehtirom kabi qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Madaniyatning o‘lchovi – insonparvarlik va ma’naviyat darajasidir.

Sivilizatsiya esa, jamiyat taraqqiyotining tashkiliy-moddiy bosqichini bildiradi. U texnologik yutuqlar, ijtimoiy tizimlar, siyosiy institutlar, ishlab chiqarish qurollari va boshqaruv shakllarining rivoji bilan belgilanadi. Masalan, “Yevropa sivilizatsiyasi”, “Islom sivilizatsiyasi”, “Rim sivilizatsiyasi” kabi atamalar muayyan madaniy an’analar bilan birga ularning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy tuzilmasini ham o‘z ichiga oladi.

Madaniyat – insonning ichki dunyosini yuksaltirish jarayoni, sivilizatsiya esa – tashqi muhitni o‘zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Shu bois madaniyat ko‘proq gumanitar qadriyatlар, axloq, san’at va falsafa bilan bog‘liq bo‘lsa, sivilizatsiya ilm-fan, texnika, iqtisodiy rivoj va boshqaruv tizimlarida namoyon bo‘ladi.

Faylasuf O.Shpengler “G‘arbning inqirozi” asarida madaniyatni tirik organizmga o‘xshatadi: u tug‘iladi, yashaydi va so‘ngra sivilizatsiyaga aylanib, “ruhiylikdan texniklikka o‘tadi”[8:383]. Ya’ni, madaniyat — bu ruh, sivilizatsiya esa tanadir. Madaniyat qadriyatlarni yaratadi, sivilizatsiya esa ularni boshqaradi.

Zamonaviy davrda bu ikki tushuncha yanada murakkablashgan. Raqamli sivilizatsiya sharoitida texnologik taraqqiyot madaniy jarayonlarga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Natijada insonning ruhiy-ma’naviy dunyosi ko‘p hollarda texnik va iqtisodiy manfaatlarga bo‘ysunib qolmoqda. Shu sababli falsafa va madaniyatshunoslikda sivilizatsiyaning haddan ortiq texnokratlashuvi madaniyatning “insonparvarlik mohiyatini” susaytiradi, degan fikr keng tarqalgan. Madaniyat va sivilizatsiya o‘zaro bog‘liq, ammo mohiyatan farqli tushunchalardir. Madaniyat insonning ma’naviy olami, estetik didi va axloqiy qadriyatlarni ifodalasa,

sivilizatsiya uning tashqi hayoti – ijtimoiy tizim, fan-texnika va boshqaruv mexanizmlarini ifodalaydi. Har qanday sivilizatsiya faqat madaniyat asosida barqaror rivojlanadi, madaniyat esa sivilizatsiya yutuqlari bilan to‘ldirilgandagina yashovchan bo‘ladi. Shu bois insoniyat taraqqiyoti madaniyat va sivilizatsiyaning muvozanatli uyg‘unligiga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat madaniyati birinchidan, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy hayotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. U moddiy ishlab chiqarishdan tortib, ma’naviy qadriyatlargacha bo‘lgan jarayonlarni birlashtirib, jamiyatning ruhiy va axloqiy me’yorlarini shakllantiradi. Madaniyatning evolyutsiyasi jamiyatning tarixiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Ikkinchidan, madaniyatning evolyutsion rivojlanishi ibtidoiy jamoa davridan zamonaviy raqamli jamiyatgacha bo‘lgan uzlusiz ijtimoiy o‘zgarishlar zanjiridir. Har bir davrda madaniyat jamiyat ehtiyojlariga moslashgan holda yangi mazmun va funksiyalar kasb etgan. Shu jihatdan madaniyat jamiyatning tarixiy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi ijtimoiy ko‘zgudir.

Uchinchidan, jamiyat madaniyati va sivilizatsiya o‘rtasidagi farq ularning mazmunida namoyon bo‘ladi: madaniyat insonning ma’naviy-axloqiy olamini ifodalasa, sivilizatsiya tashkiliy va texnik taraqqiyotni anglatadi. Har ikki tushuncha o‘zaro bog‘liq bo‘lib, sivilizatsiyaning barqaror rivoji faqat madaniyat asosida amalga oshadi.

To‘rtinchidan, zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida jamiyat madaniyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli madaniyat, virtual muloqot va axborot oqimining kuchayishi madaniy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib keldi. Shu bois madaniyatni tahlil qilishda texnologik va axloqiy omillar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, jamiyat madaniyatini falsafiy tahlil etish uning ijtimoiy hayotdagi rolini, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Madaniyat – insoniyatning tarixiy tajribasi, g‘oyaviy merosi va ma’naviy o‘zligini ifodalovchi tizimdir. Shu sababli madaniyatni rivojlantirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir.

Jamiyat madaniyati tushunchasi: evolyutsion rivojlanish bosqichlarini kelajakda tadqiq qilishda tadqiqotchilar uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

- Kelajakdagi tadqiqotlarda jamiyat madaniyatini faqat falsafiy yoki tarixiy nuqtai nazardan emas, balki sotsiologik, psixologik, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birgalikda o‘rganish zarur. Bunday multidisiplinar yondashuv madaniyatning ijtimoiy tizimdagи o‘rnini kengroq tahlil qilish imkonini beradi.

- Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivoji madaniyat shakllanishing yangi bosqichini belgilamoqda. Tadqiqotchilar jamiyat madaniyatining raqamli muhitda qanday

o‘zgarayotganini, virtual qadriyatlar va onlayn identifikatsiyaning inson ma’naviyatiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganishlari lozim.

- Globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligini sinovdan o‘tkazmoqda. Shu sababli, kelajakdagi ilmiy izlanishlar global madaniy oqimlar va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi integratsiya hamda ziddiyatlarni chuqur tahlil etishga yo‘naltirilishi kerak.

- Zamonaviy ijtimoiy muhitda axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi jamiyat madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar madaniyat va axloq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni zamonaviy falsafiy mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

- Jamiyat madaniyatining evolyutsion bosqichlarini o‘rganishda sotsiologik so‘rovlar, kontent-tahlil, intervyu va kuzatuv metodlarini qo‘llash zarur. Bu amaliy yondashuv nazariy xulosalarni empirik ma’lumotlar bilan boyitib, madaniyatning real ijtimoiy namoyon bo‘lish shakllarini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Williams R. Keywords: A Vocabulary of Culture and Society. – London.: “Fontana”, 1983. – P.87.
2. Toynbee A. A Study of History. – New-York.: “Oxford University Press”, 1946. – P.41.
3. Geertz C. One of the twentieth century's most influential books, this classic work of anthropology offers a groundbreaking exploration of what culture is. – New York.: «Basic Books», 1973. – P.113.
4. Forster M. Herder’s Philosophy. – London.: “Oxford”, 2018. – P.123. (352).
5. Маркс, К., Энгельс, Ф. Соч. – Т. 3. – М.: «Государственное издательство политической литературы», 1955. – С.90.
6. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Москва.: «Политиздат», 1989. –С.572.
7. Тойнби А.Дж. Исследование истории Цивилизации во времени и пространстве. [пер. с англ. К.Я. Кожурина]. – М.: «АСГ», 2009. –С.761.
8. Шпенглер О. Закат западного мира. – М.: «Альфа-Книга», 2014. – С.383.